

### **O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarini banklar tomonidan moliyalashtirish samaradorligini baholash**

***Gaybullayev Firuz Batirjanovich***

*-Bank-Moliya akademiyasi magistranti*

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo‘llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Perezidentining 2023-yil 1 4-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PQ-306-sonli qarori imzolanib, mazkur qarorga asosan;

-tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag‘lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so‘mgacha kreditlar ajratish va (yoki) asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish. Bunda, 100 million so‘mgacha kreditlarni garovsiz, 150 million so‘mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi;

-qiymati 1,5 milliard so‘mgacha bo‘lgan asosiy vositalarni 7 yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan qarzga berish;

-24 oydan ortiq faoliyat yuritayotgan va oxirgi 12 oyda aylanma mablag‘lari miqdori 1 milliard so‘mdan 10 milliard so‘mgacha bo‘lgan hamda kamida 10 nafar kishini doimiy ish bilan ta’minlagan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining yangi loyihibalariga va mavjud ishlab chiqarishni kengaytirishga oid loyihibalariga bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari va er maydonlari, asbob-uskunalar, bino-inshootlar va boshqa ko‘rinishdagi moddiy aktivlar bilan 20

foizgacha, biroq 1 milliard so‘mdan ortiq bo‘lmagan qiymatda ulushdor bo‘lib kirish;

-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologik startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so‘mgacha grant mablag‘larini ajratish yo‘lga qo‘yilgan (Sh.Mirziyoev. 14.09.2023 PQ-306-son).

Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida respublikamiz tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda kengaytirish maqsadida kichik biznes tadbirkorlik sub’ektlariga imtiyozli kredit mablag‘lari ajratilib, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi ham oshib bormoqda.

Har bir viloyat, tuman va shahar hokimlari va ularning bиринчи о‘rinbosarlari faoliyatiga yangi tashkil etilgan yoki faoliyati qayta tiklangan kichik korxonalar va ularda yaratilgan ish o‘rinlari sonidan kelib chiqqan holda baho berib, rag‘batlantirish bo‘yicha yangi tizim joriy etish vazifasi qо‘yildi.

Bunday amaliy choralar o‘z natijasini bermoqda. Kichik biznes mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 60 foizini, sanoat mahsulotlari hajmining uchdan birini, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 98 foizini, investitsiyalarning yarmini ta’minlamoqda. Ko‘pgina viloyatlarda eksportning 70-90 foizi aynan kichik biznesga to‘g‘ri keladi.

Respublikamizning nufuzli banklaridan biri “Mikrokreditbank” aktsiyadorlik-tijorat banki o‘z faoliyatini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo‘li bilan yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratib kelmoqda. Shuningdek, qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining moliyaviy xizmatlardan bahramand bo‘lishini ta’minlash uchun kredit mablag‘lari berishni yanada kengaytimoqda.

Bank mamlakat iqtisodiyotining real sektorini kreditlashda faol qatnashib, kredit portfeli hajmini muntazam oshirib bormoqda.

Tadbirkorlik tashabbusini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash, biznes hamjamiyati hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar o'rtasida o'zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirish, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini barcha choralar bilan qo'llab-quvvatlash Savdo-sanoat palatasining asosiy vazifasi etib belgilangan.

Respublikamizda tadbirkorlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, kichik biznes sub'ektlariga banklar tomonidan imtiyozli kredit mablag'lari ajratishni yanada takomillashtirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilib borilmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirish va uning huquqiy himoyasini ta'minlash borasida barcha zarur tashkiliy va huquqiy mexanizmlar yaratildi. Amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar natijasida biznes muhiti yaxshilanib, tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy taraqqiyotimizni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayapti.

Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilib, Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarining loyihalariga moliyaviy yordam ko'rsatilib borilmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va biznesni yuritish uchun qulay muhit yaratish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib keliyapti.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo'llab-quvvatlash maqsadida Prezidentning yuzdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, tegishli sohalari bo‘yicha ruxsatnomalar olish hamda boshqa ko‘plab xizmatlarning tartib-qoidalari soddalashtirildi.

Respublikamizda mavjud tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub’ektlariga ajratilayotgan kreditlar salmog‘i ham oshib bormoqda. Ajratilayotgan kredit mablag‘lari maqsadli va samarali sarflanib kelinmoqda. Iqtisodiyotimizda ishlab chiqarish hajmini oshirishda, yangi ish o‘rinlari yaratishda kichik biznes vakillari o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishda raqamli texnologiyalarga asoslangan bank xizmatlarni joriy etish, mijozlarga, shuningdek aholiga zamonaviy bank xizmati turlari bo‘yicha keng tushunchalar berib, moliyaviy savodxonligini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga etkazish» asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Kichik biznes sub’ektlarini moliyalashtirish hamda samaradorligini baholash bo‘yicha iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilib chiqilgan va ular tomonidan mohiyati bo‘yicha turlicha fikr va mulohalar bildirilgan.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan biri J.Sinkining fikricha: AQShda kichik biznesga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish sohasida tijorat banklari etakchilik qiladi va ularning moliyaviy xizmatlari tarkibida muddatli kreditlar berish, lizing kreditlari berish va ularni kredit liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlash muhim o‘rin egallaydi.

Shuningdek, xorijlik iqtisodchi olimlardan biri F.Allen va D.Geyllarning fikricha: Kichik va o‘rta biznes sub’ektlari faoliyatini moliyalashtirishning ikki tizimi – banklar faoliyatiga asoslangan tizim va moliya bozorlariga asoslangan tizimning mavjudligini e’tirof etishadi va bunda birinchi tizimning nisbatan

muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlashadi degan fikrni ilgari surgan.

O‘z navbatida, xorijlik iqtisodchi olimlardan Y.Shumpeter: Innovatsiya tadbirkorlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan ishlab chiqarish omillarining yangi ilmiytashkiliy uyg‘unligidir va davlat tomonidan innovatsion jarayonlar qo‘llab-quvvatlanishi lozim deb hisoblaydi.

Ilmiy ishni amalga oshirishda kichik biznes subyektlarini banklar tomonidan moliyalashtirish samaradorligini baholashda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan tahlil o‘tkazish orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

Hozirgi paytda kichik tadbirkorlik sub’ektlarining tijorat muassasalaridan kredit olishida garov ta’minotining etishmasligi yoki yo‘qligi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Kredit tashkilotlarining kichik tadbirkorlik sub’ektlariga moliyaviy mablag‘lar taqdim etmasligining asosiy sabablaridan biri va shuning barobarida uni olish masalasi kichik tadbirkorlik sub’ektining taqdim etilgan kreditni o‘z vaqtida qaytara olmasligi bilan bog‘liq. Garov ta’minotining yo‘qligi, shu bilan birga tijorat muassasalaridan kredit ololmaslik aholining tadbirkorlik faolligini pasaytiradi, kichik ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishini rag‘batlantirmaydi.

“Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo‘srimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarori (PQ-149-son, 02.04.2024 y.) qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, 2024 yil 1 apreldan 2024 yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga (asosiy ish joyiga ega shaxslar bundan mustasno) quyidagicha ajratiladi:

33 million so‘mgacha, bir yildan so‘ng ushbu qarz oluvchining tadbirkorlik faoliyati samaradorligi, qarzning maqsadli ishlatilganligi hamda

zaruratga qarab guruh kafilligi (kamida 3 nafar fuqaro) bilan qo'shimcha 50 mln so'mgacha revolver asosida;

ushbu kreditlardan tomorqani rivojlantirishning bir nechta yo'nalishlarida (parrandachilik, quyonchilik, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik va ixcham issiqxona) foydalanishi uchun;

yer maydoni 10 sotixdan ortiq bo'lgan tomorqa er egalariga va ijarachilarga 50 mln so'mgacha garovsiz;

10 sotixli ixcham issiqxonalarini barpo etish va baliqchilik faoliyatini tashkil etish uchun 100 mln so'mgacha garovsiz.

Mahallabay ishslash va tadbirdorlikni rivojlantirish agentligi vakolatli banklar bilan birgalikda 2024-yil 1-iyuldan mahallalarda dasturlar doirasida ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanimi monitoringini va ularning samaradorligini baholash mexanizmini joriy etadi.

Bank kreditlaridan foydalanayotgan tadbirdorlik sub'ektlarining qariyb 30 foizini tadbirdor ayollar tashkil etmoqda. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan ishlar samaradorligiga erishish maqsadida, tijorat banklari xususan "Mikrokreditbank" ATB tomonidan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda "Oila farovonligini oshirish uchun mikrokreditlar" loyihasi amalga oshirilmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznesni investitsiya mablag'lari bilan ta'minlash uchun samarali moliyaviy infrastruktura shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan faol davlat siyosati olib borilishi zarur. Xorijiy tajribaga muvofiq, kichik biznesni samarali qo'llab-quvvatlash keng vakolatlar, moliyaviy mablag'lar, butun mamlakat bo'yicha filiallariga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashkilot yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash sohasida kompleks chora-tadbirlarni muvofiqlashgan tarzda amalga oshiruvchi, davlat yoki aralash kapital bilan tashkil etiladigan maxsus davlat muassasa yoki tashkiloti AQShda Kichik biznes ma'muriyati (Small Business Administration, SBA), Yaponiyada Kichik va o'rta korxonalar agentligi (Small and Medium Enterprise Agency), Koreya va

Chexiyada kichik biznesni moliyalash davlat korporatsiyasi, Germaniyada davlat kapitali ishtirokidagi ixtisoslashgan kredit muassasasi, Polshada Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha agentlik (PARP), Singapurda Savdo va sanoat vazirligi huzurida tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi (SPRING), Qozog'istonda "Tadbirkorlikni rivojlantirish fondi" aktsiyadorlik jamiyati (DAMU), Belorussiyada "Tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash fondi" tashkil etilgan.

Ushbu muassasalar kichik biznes sub'ektlariga tijorat banklaridan kredit olishda vositachilik vazifasini, kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish, loyihaning barcha bosqichlarida tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi. Buning natijasida biznes rejani ko'rib chiqish muddati qisqarib, tadbirkorlarning ortiqcha xarajatlari sezilarli kamayishiga olib keladi.

Shuningdek, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlfshning eng samarali shakllaridan biri va bank kreditlarini kichik biznesga jalb etishni oshirishga imkoniyat yaratadigan kafolat berish shakli hisoblanadi. Aksariyat mamlakatlarda anchadan beri muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan kafolat fondlari kichik va o'rta korxonalarga kredit olishi uchun ta'minot taqdim etib, bank va boshqa kredit resurslaridan faol foydalanishiga sharoit yaratib kelmoqda. Bu tajriba kichik biznesning amaldagi sub'ektlarini nafaqat qo'llab-quvvatlamoqda, balki yangi korxonalarning paydo bo'lishini rag'batlantirmoqda.

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini banklar tomonidan moliyalashtirish samaradorligini baholash mavjud to'siqlarni bartaraf etish hamda ularning loyihamonini moliyalashtirish, shuningdek biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi yordam berish tijorat banklarining bosh maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, hududiy tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarish samaradorligini intensiv omillar, ishlab chiqarishning ilg'or shakllari hisobiga oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida yirik milliy va xorijiy kompaniyalarning bo'limlari, filiallarini joylashtirish; tuman va shaharlarda

hududiy tadbirkorlik faoliyatini iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga yo'naltirishga alohida e'tibor berish lozim.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tuzilmaviy siljishlar asosida eksportni rag'batlantirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilishi lozim. Buning uchun kichik tadbirkorlikning tovar va xizmatlarini tashqi bozorda muvaffaqiyatl sota oladigan maxsus tashqi savdo tashkilotlarini rivojlantirish; sifatni boshqarishning xalqaro tizimini amaliyotga tatbiq etish yo'li bilan tovarlar raqobatbardoshligini oshirish; eksportga chiqarilayotgan mahsulotlarga transport xizmati ko'rsatish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

Hozirgi rivojlanib borayotgan iqtisodiyotimizda tadbirkorlik sub'ektlari uchun bankka bormasdan, xech qanday hujjatlarsiz, ta'minotsiz aylanma mablag'larni to'ldirish uchun bankning "Mobile banking" va "Internet banking" ilovalari orqali skoring tahlili asosida kredit olish imkonini beruvchi "Biznes Online" kredit ajratish tartibi amaliyotga joriy qilindi.